

UO‘K(UDC, УДК): 821.133.1-94.09

ANNI ERNO ASARLARIDA XOTIRA POETIKASI¹⁰

Abdullayeva Firdavsxon A’zamjon qizi

Is’hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti

Nemis va fransuz tillari kafedrası o’qituvchisi

Namangan, O’zbekiston

E-mail: firdavsxonabdullayeva92@gmail.com

ORCID ID: 0009-0009-4526-3019

ANNOTATSIYA	KALIT SO‘ZLAR
Maqolada 2022-yilgi Nobel mukofoti sohibasi, fransuz adibasi Anni Erno asarlaridagi xotira badiiyati o‘rganiladi. Tadqiqotning maqsadi yozuvchi qalami ostida shaxsiy kechinma bilan jamoaviy o‘tmishning birlashishi, bu birlashuvni ifodalovchi badiiy vositalarni hamda ularning estetik, ijtimoiy va axloqiy zamin-asoslarini aniqlashdir. Erno avtobiografik janrning an’anaviy chegaralarini yangilab, “avto-sotsiobiografiya” va “impersonal avtobiografiya” kabi yangi shakllarni taklif etadi, ularda xotira shaxsiy ruhiy hodisa emas, ijtimoiy-tarixiy tajriba sifatida talqin qilinadi. Tadqiqot metodologiyasi komparativ-tipologik, germeneytik, lingvopoetik usullarga hamda zamonaviy memory studies yondashuvlariga tayanadi. Manba sifatida adibaning “La Place” (1983), “Une Femme” (1987), “La Honte” (1997), “Les Années” (2008) asarlari va 2022-yilgi Nobel ma’ruzasi tahlilga jalb qilindi. Tadqiqot natijasida adib uslubining beshta belgisi aniqlangan bo‘lib, bular “écriture plate” estetikasi, fotografik idrok va ekfrazis, shaxsiy xotirani jamoaviy o‘tmishga ulash, sharm va sinf tajribasining qatlamma-qatlam ochilishi, “o‘z xalqi nomidan o‘ch olish” axloqiy-siyosiy pozitsiyasi kabilar. Xulosa o‘rnida Erno poetikasi xotira, adabiyot va tarix uchligining yangi badiiy talqinini taklif etadi va memory studies yo‘nalishida qiyosiy tahlillarga muhim hissa qo‘shishi aniqlandi.	Anni Erno, xotira badiiyati, avtobiografik nasr, jamoaviy xotira, écriture plate, impersonal avtobiografiya, sinf ongi, sharm, fotografik yozuv, fransuz adabiyoti, Nobel mukofoti, memory studies. Received: April 17, 2026 Accepted: April 28, 2026 Available online: September 5, 2026

¹⁰ **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Abdullayeva F. Anni Erno asarlarida xotira poetikasi.// Komparativistika (Comparative Studies). — 2026. — Vol.3, № 4(12) — B. 161-171.

THE POETICS OF MEMORY IN THE WORKS OF ANNIE ERNAUX

Abdullayeva Firdavskhon A'zamjon kizi
Namangan State Institute of Foreign Languages
named after Is'haqkhan Ibrat
Department of German and French Languages
lecturer
Namangan, Uzbekistan
E-mail: firdavsxonabdullayeva92@gmail.com
ORCID ID: 0009-0009-4526-3019

ABSTRACT	KEYWORDS
This article examines the art of memory in the works of the 2022 Nobel Prize laureate, French writer Annie Ernaux. The aim of the research is to identify the integration of personal experience with the collective past in the author's writing, the literary devices that express this integration, and their aesthetic, social, and ethical foundations. Ernaux renews the traditional boundaries of the autobiographical genre by proposing new forms such as "auto-sociobiography" and "impersonal autobiography," in which memory is interpreted not as a personal psychological phenomenon but as a socio-historical experience. The research methodology relies on comparative-typological, hermeneutic, and linguopoetic methods, as well as approaches from contemporary memory studies. The author's works "La Place" (1983), "Une Femme" (1987), "La Honte" (1997), "Les Années" (2008), and her 2022 Nobel Lecture were subjected to analysis. The research identified five characteristics of the author's style: the aesthetics of "flat writing," photographic perception and ekphrasis, the linking of personal memory to the collective past, the layered unfolding of shame and class experience, and an ethical-political stance of "avenging her race." In conclusion, it was determined that Ernaux's poetics offers a new artistic interpretation of the triad of memory, literature, and history, and makes a significant contribution to comparative analyses within the field of memory studies.	Annie Ernaux, artistry of memory, autobiographical prose, collective memory, écriture plate, impersonal autobiography, class consciousness, shame, photographic writing, French literature, Nobel Prize, memory studies.

ПОЭТИКА ПАМЯТИ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ АННИ ЭРНО

Абдуллаева Фирдавсхон Аъзамжон кизи

*Преподаватель**кафедры немецкого и французского языков**Наманганский государственный институт иностранных**языков имени Исхакхана Ибрата**Наманган, Узбекистан**E-mail: firdavsxonabdullayeva92@gmail.com**ORCIDID: 0009-0009-4526-3019*

АННОТАЦИЯ	КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА
В статье исследуется мастерство художественной репрезентации памяти в произведениях лауреата Нобелевской премии 2022 года, французской писательницы Анни Эрно. Цель исследования заключается в выявлении в творчестве писательницы особенностей взаимодействия личного опыта с коллективным прошлым и анализе художественных средств, посредством которых осуществляется это соединение, а также в установлении их эстетических, социальных и нравственных оснований. Эрно расширяет традиционные границы автобиографического жанра, предлагая такие новые формы, как «автосоциобиография» и «имперсональная автобиография», в которых память интерпретируется не как сугубо личное психическое явление, а как социально-исторический опыт. Методология исследования основывается на сравнительно-типологическом, герменевтическом и лингвопоэтическом методах, а также на современных подходах, в частности, на исследованиях памяти (memory studies). В качестве материала исследования выступают такие произведения Анни Эрно, как «Место» (La Place, 1983), «Одна женщина» (Une Femme, 1987), «Стыд» (La Honte, 1997), «Годы» (Les Années, 2008), а также Нобелевская лекция 2022 года. В результате исследования выявлены пять особенностей стиля писательницы: эстетика «écriture plate», фотографическое восприятие и экфрасис, соединение личной памяти с коллективным прошлым, поэтапное раскрытие опыта стыда и социальной принадлежности, а также нравственно-политическая позиция «мести от имени своего народа». В заключение установлено, что поэтика Эрно предлагает новое художественное осмысление триады память – литература – история и вносит значительный вклад в сравнительные исследования в области исследований памяти.	Анни Эрно, художественность памяти, автобиографическая проза, коллективная память, écriture plate, имперсональная автобиография, классовое сознание, стыд, фотографическое письмо, французская литература, Нобелевская премия, исследования памяти.

KIRISH

Anni Erno zamondosh fransuz adabiyotining yetakchi vakili hisoblanadi. 2022-yil 6-oktabrda Shvetsiya akademiyasi unga adabiyot sohasida Nobel mukofotini “shaxsiy xotira ildizini, begonalashuvini va jamoaviy chegaralarini jasorat va aniqlik bilan ochib bergani uchun” topshirdi (The Swedish Academy, 2022). Mukofot adib ijodida xotiraning markaziy o‘rnini xalqaro miqyosda tan oldi va xotira poetikasini zamondosh adabiyotshunoslikning dolzarb muammolaridan biriga aylantirdi.

Mavzuning dolzarbligi quyidagi omillar bilan belgilanadi: avvalo, o‘zbek adabiyotshunosligida Erno ijodi monografik darajada o‘rganilmagan; navbatdagi omil, zamondosh fransuz nasrining o‘zbek qiyosiy adabiyotshunosligi nuqtayi nazaridan tahlili kompleks ravishda taqdim etilmagan; so‘nggi omil, “memory studies” yo‘nalishi o‘zbek filologiyasiga endigina kirib kelmoqda. Mavzuning yangiligi shundaki, ushbu maqolada birinchi marta Erno asarlaridagi xotira poetikasi tizimli ravishda tahlil qilinadi va uning ijodi o‘zbek komparativistikasi metodologiyasi doirasiga kiritiladi.

Tadqiqotning maqsadi Anni Erno asarlarida xotira poetikasining asosiy belgilarini aniqlash, ularning estetik, ijtimoiy va axloqiy asoslarini ochib berish hamda bu poetikaning zamondosh “memory studies” yo‘nalishidagi o‘rnini ko‘rsatishdan iboratdir.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat: 1) Erno poetikasining fransuz adabiy an‘anasi (Proust, Barthes, Perec) bilan bog‘liqligini aniqlash; 2) yozuvchining asosiy asarlarini xotira poetikasi nuqtai nazaridan tahlil qilish; 3) “écriture plate” tushunchasining mohiyatini ochib berish; 4) Erno poetikasining o‘ziga xosligini aniqlash va uni zamondosh adabiyotga ta’sirini baholashdan iborat.

ASOSIY QISM

Tadqiqot bir nechta nazariy zaminga tayanadi. Halbwachs (Halbwachs M., 1950) “kollektiv xotira” konsepsiyasida shaxsiy xotira ijtimoiy guruh xotirasining bir qismi sifatida shakllanishini ko‘rsatgan. Uning fikricha, xotira ijtimoiy ramkalar (cadres sociaux) ichida saqlanadi va guruh tarqalsa, individual xotira ham yo‘qoladi.

Pierre Nora (Nora P., 1984–1992) “xotira joylari” (lieux de mémoire) tushunchasi bilan zamondosh jamiyat tabiiy xotira muhitidan ajralib qolganini va sun’iy belgilar (yodgorliklar, marosimlar, hujjatlar) orqali o‘tmish bilan bog‘lanishini izohlagan. Aleida Assmann (Assmann A., 2011) “madaniy xotira” nazariyasida xotirani aloqaviy va madaniy qatlamlarga ajratadi.

Pierre Bourdieu sotsiologiyasi tadqiqotning yana bir asosi. Uning “habitus”, “madaniy capital”, “ramziy zo‘ravonlik” tushunchalari Ernomatnlarining ichki tuzilishiga singib ketgan. Charpentier (Charpentier I., 2011, 89) Erno asarlarini “ethnotexte”, ya’ni ishchi-dehqon sinfi tajribasini ularning o‘z tilida aks ettiruvchi adabiy matn deb ta’riflaydi. Tadqiqotda komparativ-tipologik, germeneytik, lingvopoetik metodlar qo‘llanildi. Ilmiy baza sifatida Scopus va Web of Science ma’lumotlar bazasiga kiritilgan ilmiy nashrlardan foydalanildi: “Journal of Romance Studies” (Liverpool University Press, Scopus Q3) ning 2024-yilgi soni hamda “French Cultural Studies” (Sage Publications, Scopus Q1, WoS) ning Annie Ernaux maxsus soni (2024).

TADQIQOT NATIJALARI

1. “Les Années” (Yillar) romanida xotiraning shakli

“Les Années” (“Yillar”, 2008) Erno ijodining markaziy asari hisoblanadi. Asar 1940-yillardan yangi asrning boshigacha Fransiyada kechgan ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlarni bir ayolning hayot chizig‘i orqali aks ettiradi. Asarning birinchi jumlası “Toutes les images disparaîtront” (“Barcha tasvirlar yo‘qoladi”) (Ernaux A., 2008, 11) kitobning butun yo‘nalishini belgilaydi: o‘tkinchi xotiralarni adabiy matn orqali saqlab qolish.

Asarning eng yaqqol belgisi shundaki, “men”so‘zi bir marta ham ishlatilmaydi. Adib o‘rniga uchinchi shaxs (“elle”) va birinchi shaxs ko‘plik (“nous”, “on”) shakllarini almashtirib qo‘llaydi. Jefferson (2024, 7) bu yechimni “insonlararo masala” deb baholaydi: “men” qotib qolgan tuyularkan, “u”tashqi va uzoqdek ko‘rinadi, ikkala shakl navbatma-navbat ishlashi shaxsni guruh ichida, guruhni esa shaxs orqali ifodalashga imkon beradi.

Asar tarkibida fotosuratlar alohida o‘rin tutadi. Kitob davomida o‘n to‘rt fotografiya tilga olinadi, lekin surat kitobga joylashtirilmaydi, uning so‘z orqali batafsil ifodasi (ekfrazis) beriladi. Bu Pierre Nora aytgan “xotira joylari” ning matn sahifasidagi ko‘rinishidir. Hugueny-Léger (2009, 82) Erno ijodida “image”, “scène”, “cinema”, “film” so‘zlari “souvenir” va “mémoire” bilan birga, ularni almashtirishga yaqin kontekstda qo‘llanilishini ta’kidlaydi: fotografik-kinematografik idrok adib uslubining mustahkam belgilaridan biri.

Grammatik darajada “Les Années”ning tayanchi imparfait, ya’ni “tugallanmagan o‘tgan zamon” fe’l shakli. Bu zamon takrorlanuvchi, davom etuvchi hodisalarni ifodalaydi va vaqtga aniq chegara qo‘ymaydi. Dean P. (Dean P., 2024) imparfaitning doimiy qo‘llanilishi vaqtni Bergson ma’nosidagi “durée”, ya’ni bo‘laklarga ajralmas davomiy oqim sifatida his qilishga imkon yaratishini ko‘rsatadi.

2. “Écriture plate” va sinfiy xotira

1983-yili nashr etilgan “La Place” (“O‘rin”) Erno ijodida burilish nuqtasi bo‘ldi. Bu yetmish olti sahifalik kitob adibaga Renaudot mukofotini olib keldi. Asar yozuvchining otasi Alphonse Duchesne (dehqon farzandi, fabrika ishchisi, keyin Yveto shaharchasidagi do‘kon-kafe egasi) hayoti va o‘limini hikoya qiladi. “La Place”da Erno birinchi marta “écriture plate”, ya’ni “sodda yozuv” yoki “oddiy yozuv” usulini sinab ko‘rdi (Ernaux A., 1983, 24).

Adib bu uslubning tabiatini kitobning kirish qismida ochib beradi. U otasiga yozgan oddiy, bezaksiz, ma’lumot uzatishga qaratilgan tilni she’riy adabiy tilga qarama-qarshi qo‘yadi. Adibaning fikricha, obrazli til (metafora, tasvirli sintaksis) otasining oddiy turmush tarziga begona ko‘rinadi. Otaning hayoti haqida yozishning to‘g‘ri yo‘li ishchi-dehqon tilining tabiiyligi va aniqligi bilan hamohang ishlaydigan “sodda yozuv” hisoblanadi.

“Écriture plate”ning ildizi Roland Barthesning “Le Degré zero de l’écriture” (1953) risolasida ko‘rinadi. Barthes stilistik bezaklarning o‘zi sotsial belgi ekanini, til vositasida sinflar farqi qanday ifodalanishini ko‘rsatgan edi. Erno bu g‘oyani amaliyotga olib chiqdi: she’riy tildan voz kechish burjua madaniy hegemoniyasidan

voz kechish ma'nosini bildiradi (Cini C., Véron L., 2025). Bu tushunchaga tanqidiy yondashadi: ularning fikricha, “écriture plate” haqiqatan mavjud emas, Erno matnlarida ko'plab nozik stilistik figuralar bor, ammo adibaning o'zi ularni “adabiy emas” deb belgilaydi. Bu, mualliflarning iborasi bilan, “stilistik illyuziya”dir.

“Une Femme” (“Ayol”, 1987) asarida xuddi shu uslub adibaning onasi Blanche Duchesne hayotiga yo'naltirildi. Yozuvchi kitob davomida o'z pozitsiyasini ochiq aytadi: “bu biografiya ham, roman ham emas, bu onamni tarixga aylantirish urinishidir” (Ernaux A., 1987, 23). Charpentier (Charpentier I., 2011, 89) bu yondashuvni “ethnotexte”, ya'ni etnomatn deb ataydi. “La Honte” (“Uyat”, 1997) esa travmatik xotiraning poetik xaritasini chizadi. Asar keskin jumla bilan ochiladi: “Otam iyun oyining bir yakshanbasida, peshindan keyin, onamni o'ldirmoqchi bo'ldi” (Ernaux A., 1997, 13). Bu 1952-yili sodir bo'lgan voqeaga ishora bo'lib, o'sha paytda o'n ikki yoshli qiz mazkur sahnaning guvohi bo'lgan. Adib psixologik tahlilga o'rnashmaydi, balki 1952-yildagi Yveto shaharchasining diniy, maktab, oilaviy muhitini tiklashga harakat qiladi.

3. Xotira axloqi va fotografik tafakkur

Erno uslubining yana bir muhim qirradi xotiraning axloqiy va siyosiy yo'nalishida ko'rinadi. Bu yo'nalish 2022-yilgi Nobel ma'ruzasidagi “J'écrirai pour venger ma race” (“Men o'z xalqim nomidan o'ch olmoq uchun yozaman”) jumlasida eng aniq ifodasini topdi (Ernaux A., 2023, 18). Bu so'zlar adibaning yigirma ikki yoshida (1962-yil) kundalik daftariga yozgan e'tirofi edi va Arthur Rimbaud satriga ishora qilardi.

Ma'ruzada Erno yozuvchilik qarashini bayon qildi: yozish boshdan kechirilgan, ammo ifodaga sig'magan tajribalarning sukutini buzishdir; shaxsiy hayotni tadqiq qilish jamoaviy ozodlikka yo'l ochadi. Xotira bu yerda ruhiy kechinmaning obyekti bo'lmasdan, sotsial adolatsizlikka qarshi kurashning quroli vazifasini bajaradi. Eslab qolish shunchaki saqlash emas, balki “tovush bermaydiganlar”ni va “unutilganlar”ni ko'rinadigan qilish demakdir.

MUNOZARALAR

Tahlil natijalari Erno ijodida xotira badiiyatining ichki uyg'un tizim sifatida shakllanganini ko'rsatadi. Bu tizim fransuz adabiy an'anasi (Proust, Barthes, Perec), sotsiologik nazariya (Bourdieu, Halbwachs) va madaniy xotira nazariyasi (Nora, Assmannlar) chorrahasida vujudga kelgan. Adibning yutug'i shundaki, u bu turli yo'nalishlarning oddiy yig'indisini emas, ularning o'zaro suhbatidan tug'ilgan badiiy hodisani yarata oldi.

Xotira mohiyati Erno ijodida yangi nuqtai nazardan tushuniladi. Agar Proust uchun xotira individual psixikaning estetik cho'qqisi bo'lsa, Erno uchun u sotsial hodisa, ya'ni shaxs guruhga, guruh esa shaxsga aylanadigan kesishuv hisoblanadi. Bu yondashuv Halbwachsning "cadres sociaux" konsepsiyasiga qaytadi va memory studies an'anasining badiiy ko'rinishi sifatida tushunilishi mumkin. Jefferson (Jefferson A., 2024) Erno ijodidagi vaqt poetikasini tahlil qilar ekan, uning kelajakka qaratilgan istiqbol qurish tamoyilini ham xotira poetikasining bir qirrasini ekanini ko'rsatadi.

"Écriture plate" uslubi yozuvchi badiiyatining markazini tashkil etadi. Adib bu uslub orqali Barthesning "neytral yozuv" g'oyasini Bourdieuning sinfiy tahlili bilan birlashtirib, stilistik bezaksizlikni sotsial hamjihatlik formasiga aylantirdi (Cini C., Véron L., 2025). Zamondosh tanqidiy nuqtayi nazardan ko'rsatishicha, "écriture plate"ning o'zi ham bir turdagi adabiy uslub, adibning o'zini ma'lum bir an'ana ichida joylashtirish uslubidir.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarga olib keldi. Anni Erno ijodi zamondosh avtobiografik adabiyotda xotira poetikasining eng original namunalaridan biri hisoblanadi. Yozuvchi xotirani shaxsiy ruhiy hodisa sifatida emas, ijtimoiy-tarixiy tajriba shaklida talqin qiladi. Bu pozitsiya Halbwachs, Nora va Assmannlarning zamondosh xotira nazariyasi bilan uzviy bog'liqdir.

Shuningdek, Erno poetikasining markaziy stilistik tamoyili "écriture plate" nafaqat estetik, balki axloqiy va siyosiy tanlov hisoblanadi. "Les Années" romanida adib "impersonal avtobiografiya" janrini topdi. Bu shaklda "men"dan voz kechiladi,

uning oʻrniga uchinchi shaxs va koʻplik shakllari almashinib turadi. Asarning fotografik va kinematografik vositalari Aleida Assmannning “media of memory” tushunchasini badiiy darajada amalga oshiradi. Erno poetikasining axloqiy-siyosiy oʻlchovi Nobel maʼruzasidagi “oʻz xalqim nomidan oʻch olmoq uchun yozaman” jumlasini orqali ifodalanadi. Xotira bu yerda lirik kechinma yoki nostalgik qaytish boʻlmasdan, ijtimoiy adolatsizlikka qarshi kurashning badiiy quroli sifatida namoyon boʻladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Assmann A. Cultural Memory and Western Civilization: Functions, Media, Archives. – Cambridge: Cambridge University Press, 2011. – 424 p. (Scopus, Cambridge UP).
2. Barthes R. Le Degré zéro de l’écriture. – Paris: Seuil, 1953. – 127 p.
3. Bourdieu P. La Distinction: Critique sociale du jugement. – Paris: Éditions de Minuit, 1979. – 670 p.
4. Charpentier I. Les “ethnotextes” d’Annie Ernaux ou les ambivalences de la réflexivité littéraire // Bajomée D., Dor J. (dir.). Annie Ernaux: se perdre dans l’écriture de soi. – Paris: Klincksieck, 2011. – P. 77–101.
5. Cini C., Véron L. L’écriture plate n’existe pas. Annie Ernaux: entre hyperconscience sociolinguistique et illusion stylistique // CONTEXTES. – 2025. – № 36. – URL: <https://journals.openedition.org/contextes/12747>
6. Dean P. The Annals of Annie Ernaux // Literary Matters. – 2024. – Vol. 16, № 3. – URL: <https://www.literarymatters.org/16-3-the-annals-of-annie-ernaux/>
7. Ernaux A. La Place. – Paris: Gallimard, 1983. – 114 p.
8. Ernaux A. Une Femme. – Paris: Gallimard, 1987. – 106 p.
9. Ernaux A. La Honte. – Paris: Gallimard, 1997. – 142 p.
10. Ernaux A. L’Événement. – Paris: Gallimard, 2000. – 124 p.
11. Ernaux A. L’Usage de la photo (with M. Marie). – Paris: Gallimard, 2005. – 240 p.
12. Ernaux A. Les Années. – Paris: Gallimard, 2008. – 241 p.

13. Ernaux A. *I Will Write to Avenge My People: The Nobel Lecture* / transl. A. L. Strayer. – New York: Seven Stories Press, 2023. – 64 p.
14. Halbwachs M. *La Mémoire collective*. – Paris: Presses Universitaires de France, 1950. – 170 p.
15. Hugueny-Léger É. *Annie Ernaux, une poétique de la transgression*. – Oxford: Peter Lang, 2009. – 257 p.
16. Hugueny-Léger É. *Annie Ernaux: Politics lived and written* // *French Cultural Studies*. – 2024. – Vol. 35, № 1. – P. 3–9. (Scopus Q1, WoS).
17. Jefferson A. *Annie Ernaux: Future prospects and the politics of time* // *Journal of Romance Studies*. – 2024. – Vol. 24, № 1. – P. 1–18. (Scopus Q3).
18. Nora P. (dir.). *Les Lieux de mémoire*. – Paris: Gallimard, 1984–1992. – 3 vol., 7t.
19. Thomas L. *Retour à Oxford avec Annie Ernaux: casting light on class migrant experience* // *French Cultural Studies*. – 2024. – Vol. 35, № 1. – P. 32–41. (Scopus Q1, WoS).
20. The Swedish Academy. *The Nobel Prize in Literature 2022: Biobibliography of Annie Ernaux*. – Stockholm: The Nobel Foundation, 2022. – URL: <https://www.nobelprize.org/prizes/literature/2022/bio-bibliography/>

REFERENCES

1. Assmann, A. (2011). *Cultural memory and Western civilization: Functions, media, archives*. Cambridge University Press.
2. Barthes, R. (1953). *Le degré zéro de l'écriture* [Writing degree zero]. Seuil.
3. Bourdieu, P. (1979). *La distinction: Critique sociale du jugement*. Éditions de Minuit.
4. Charpentier, I. (2011). Les «ethnotextes» d'Annie Ernaux ou les ambivalences de la réflexivité littéraire. In D. Bajomée & J. Dor (Eds.), *Annie Ernaux: Se perdre dans l'écriture de soi* (pp. 77–101). Klincksieck.

5. Cini, C., & Véron, L. (2025). L'écriture plate n'existe pas. Annie Ernaux: entre hyperconscience sociolinguistique et illusion stylistique. *COnTEXTES*, (36). <https://journals.openedition.org/contextes/12747>
6. Dean, P. (2024). The annals of Annie Ernaux. *Literary Matters*, 16(3). <https://www.literarymatters.org/16-3-the-annals-of-annie-ernaux/>
7. Ernaux, A. (1983). *La place*. Gallimard.
8. Ernaux, A. (1987). *Une femme*. Gallimard.
9. Ernaux, A. (1997). *La honte*. Gallimard.
10. Ernaux, A. (2000). *L'événement*. Gallimard.
11. Ernaux, A. (2005). *L'usage de la photo* (with M. Marie). Gallimard.
12. Ernaux, A. (2008). *Les années*. Gallimard.
13. Ernaux, A. (2023). *I will write to avenge my people: The Nobel Lecture* (A. L. Strayer, Trans.). Seven Stories Press.
14. Halbwachs, M. (1950). *La mémoire collective*. Presses Universitaires de France.
15. Hugueny-Léger, É. (2009). *Annie Ernaux, une poétique de la transgression*. Peter Lang.
16. Hugueny-Léger, É. (2024). Annie Ernaux: Politics lived and written. *French Cultural Studies*, 35(1), 3–9. <https://doi.org/10.1177/09571558241231735>
17. Jefferson, A. (2024). Annie Ernaux: Future prospects and the politics of time. *Journal of Romance Studies*, 24(1), 1–18. <https://doi.org/10.3828/jrs.2024.1>
18. Nora, P. (Ed.). (1984–1992). *Les lieux de mémoire* (3 vols., 7 tomes). Gallimard.
19. Thomas, L. (2024). Retour à Oxford avec Annie Ernaux: Casting light on class migrant experience. *French Cultural Studies*, 35(1), 32–41. <https://doi.org/10.1177/09571558231214678>
20. The Swedish Academy. (2022). *The Nobel Prize in Literature 2022: Biobibliography of Annie Ernaux*. The Nobel Foundation. <https://www.nobelprize.org/prizes/literature/2022/bio-bibliography/>